



MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

KO'Z OCHIB KO'RGANIM HIKOYASIDA QAHRAMON
RUHIYATINI TASVIRLASH USULLARI

Xolmatova Ro'zixon Akmaljon qizi.

FarDU 1-kurs magistranti

+998901622943

ANNOTATSIYA: Mazkur maqolada Gulchehra Asronovaning "Ko'z ochib ko'rganim" hikoyasi misolida qahramon ruhiyatini turli vositalar orqali anglashimiz mumkin. Misol uchun ohang, mimika, detal, portret vositalari orqali qahramon ruhiyati kengroq yoritiladi.

Kalit so'zlar: Ruhiyat, Xarakter, Ohang, Mimika, Detal, Portret.

АННОТАЦИЯ: В данной статье на примере рассказа Гульчехры Асроновой «Я открыла глаза, я увидела» более подробно освещается психика героя..

Ключевые слова: настроение, характер, тон, выражение лица, деталь, портрет

ABSTRACT: In this article, on the example of Gulchehra Asronova's story „Ko'z ochib ko'rganim,, the psyche of the hero is covered in more detail.

Key words: Psyche, Charakter, Tone, Mime, Detail, Portrait.

Ruhiyat –insoni ichki dunyosini ,xarakterini ochib beradi. Psixologizm terminining ta'rifi turlicha izohlanadi. Rus adabiyotshunolsik terminlari lug'atida "Psixologizm (adabiyotda) – qahramonlar ichki olami: ularning o'y-xayollari, orzu-umidlari, iztiroblarining chuqur va batafsil tasviri"⁵¹. L.Ya.Ginzburg esa "... ko'ngil olami ziddiyatlarining chuqur tadqiqi" deya ta'riflasi, A.B. Yesin psixologizmni keng va tor ma'nolari mavjud ekanligiga to'xtalib o'tadi –keng ma'noda inson hayotini tarannum etuvchi va xarakterini tasvirlab beruvchi barcha san'at turlarining xususiyati tushunilsa, tor ma'noda esa inson ichki olamidagi hayot va jarayonlarning tasviri deyiladi⁵². Darhaqiqat, asarning badiiy g'oyasini ochib berish uchun ham albatta qahramonning ruhiyati, ichki kechinmalari muhim ro'l o'ynaydi. Adabiyotshunos M.Qo'chqorova esse, hikoya va qissalar haqida fikr yuritir ekan, "Hozirgi o'zbek nasrida inson

1. Гинзбург, Л. Я. О психологической прозе. О литературном герое. СПб.: Азбука, 2016.

2. Литературная энциклопедия терминов и понятий ; под ред. А. Н. Николюкина. М.: 2001 (<https://www.academia.edu/37372082/>).

3. Есин А. Б. Психологизм русской классической литературы : учебное пособие. — М. : Флинта : Наука, 2011.

4. Адабиётшунослик луғати. Д.Қуронова ва б. Т.: Академнашр, 2013.

5. Н. Г. Чернышевский. Собрание сочинений в пяти томах. Том 3. Литературная критика. Библиотека "Огонек". М.: "Правда", 1974 (http://az.lib.ru/c/chernyshevskij_n_g/text_0240.shtml)..

52





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ruhiyatini kashf etishda adiblarimiz turfa xil psixologik tasvir vositalaridan, chunonchi, tush, xotira-xayol, ichki va tashqi monolog, dialog, polilog, muallif bayoni, peyzaj, psixologik tasvir, qahramonlarning mimika va jestlari, illyuziya, gallyusinatsiya, egizak obrazdan keng foydalanishmoqdaki, bular barchasi tadqiqotchilarimizdan yangicha nigoh bilan tadqiq etishni talab etmoqda”, degan xulosaga keladi.⁴

Badiiy asar inson ruhiyatini turli vositalar orqali ochib beradi ruhiy tasvir usullari badiiy asarda qahramon ruhiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi. Ular muallifning g'oyalarini, hissiyotlarini va fikrlarini kitobxonga yetkazish uchun samarali vositadir. Inson ruhiyatini ochib berish vositalari; ohang ichki monolog, ranglar, simvollar, portret, metaforalar. Ohang-adabiy asar yoki uning qismidagi hissiy va ruhiy holatlarni ifodalovchi muhim vosita. U so'zlarning intonatsiyasi, ritmi, va ma'no qatlamlari orqali o'quvchiga yetkaziladi. Ohang, asarning umumiy atmosferasini yaratadi va qahramonlarning ichki dunyosini ochib beradi. Ichki monolog orqali qahramonning o'z-o'ziga so'zlashuvi orqali ruhiy holatlar chuqurroq ifodalanadi. Ranglar ko'pincha ma'lum hissiyotlar bilan bog'liq; masalan, qizil rang ishq va ehtirosni, ko'k rang esa tinchlik va hotirjamlikni anglatadi. Adibimiz Gulchehra Asronova inson ruhiyatini o'ziga xos tarzda mahorat bilan turli vositalar orqali ochib bergan. Adibamizning, „Ota uyim oqshomlari“ nomli hikoyalar to'plamidan olingan. Ko'z ochib ko'rganim hikoyasida inson ruhiyati, ijtimoiy hayotdagi o'rni keng ochib berilgan. Hikoyada asosan uch qahramon hayoti, ruhiy kerchinmalari keltirilgan. Hikoyada Xilola, Xurshid, Hamdam obrazlari keltirilgan. Hikoyaning boshlanishi Xilolaning ichki kechinmalari, ruhiy holati bilan boshlanadi. „O, bu shirin hayajonni tuymaganimga, ukpar tuyg'u qanotida sayr qilmaganimga qancha bo'ldiya! Shunday yaxshi shu bo'limga o'tgani, uni uchratgani naqadar yaxshi. Bugun ishga kech qolib kelyapti, u hoynahoy shu yerda... Bu yerdagi birgina O tovushi Hilolaning hayotidagi bo'shliqni anchadan buyon bunday shirin tuyg'uni his qilmaganini anglatadi. Nega aynan yozuvchi O ohangi orqali Hilolaning ichki holatini ochib bermoqda? Boshqa tovushlar orqali ham ifodalansa ham bo'lardiku? O tovushi ichki tuyg'ularning jumbushga kelishi, qahramonning hayratini anglatibgina qolmay, O ohangi no'lni yani yo'qlikni anglatadi. Hilola turmush o'rtog'idan ko'rmagan „MEHR“ ni Xurshiddan topa boshlashi manashu O ohangi orqali ifodalanadi. Birgina O ohangi Xilolaning butun bir ichki olamini ochib beradi. Hilolaning hamkasiblarini tasvirlashida ham ruhiyatining tasviri ketadi. Xurshiddan boshqa hammasi zerikarli odamlar burchakdagi tepakal, ko'zoynak ostidan qarayverib manglayi g'ijimlanib ketgan kekxa hamkasbi, almisoqdan qolgan stoliga ikki tirsagini tiragancha o'zi qulog'igachga botgan ro'zg'or tashvishlaridan arz qilib charchamaydigan opaxon... Turmush bir zaylda, rangsiz ma'nosiz o'tayotgan bechoralar!) Hilola o'z hayotidagi muomolardan charchagan, birozga bo'lsa ham ruhan erkinlik istagan bir vaqtda Xurshid uning hayotida quyosh kabi porlaydi. Hilolaning atrofigdagi hamkasiblarining tasvisri rangsiz, bo'yoqsiz tasvirlanishi ham hozirgi vaqtda





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

baxtsizligini anglatadi. Turmushi bir zaylda ,rangsiz, manosiz o'tayotgan bechoralar!) deya aynan hamkasiblari keltirilsada bu tasvirlar Hilolaning hayot tasviri edi. Hilolaning turmush o'rtog'i Hamdam faqat ilmiy ish bilan mashg'ul, vaqtincha atrofidagilarga befarq inson . Shu sababdan e'tiborni Hilola Xurshiddan kuta boshladi. Ko'ngli qaqrab turganda Xurshid unga ishq to'la maykosa tutdi. To'g'ri uning eri bor... Ermish... Xayolparast, baxtiqaro chala olim! To'rt yildan o'sha eski papkasini laboratoriyaga yugurgani yugurgan. Papkasi semirgani sari o'zi ozib to'zib , abgor bo'ldi. Ermish... bu so'zdan so'ng uch nuqta qo'yilishi ham Hilolaning qalbidagi og'riqni biroz bo'lsada ochib beradi. To'g'ri uning eri bor... bu uch nuqtali jumla esa Hilolaga yana ham kuchliroq og'riq berayotganini manashu tinish belgilar orqali tushunishimiz mumkin. Hamdamning sumkasining semirishi o'zining esa ozib ketish holati esa nafaqat ayoliga balki o'ziga ham beparvo bo'lib qolgan inson qiyofasini ko'ramiz. Hikoya 2 qismdan iborat . Hikoyaning asosiy tugallanmasida tugun va yechimning aynan bir joyda kelishi hikoyaning o'ziga xos xususiyatini ko'rsatadi. Hilola vujudida uyg'ongan g'ayritabiiy kuch uning yuziga tarsaki tortib yubordi . Bu qanday haqorat sharmandalik. Xurshid bir lahza yuzini ushlagancha qotib qoldi . So'ng oshiq qiyofasini butunlay tark etib , jazavaga tushdi. Nozlari zo'r-ku! Hilola yuzini qo'llari bilan yuzini yashirgancha yig'lab yubordi. Uyatsiz! - hmm, siz uyatli ekansiz-da! Erli bo'laturib begona erkakka ishva qilgan ayol uyatli bo'ladimi ? Nima, o'n besh yasharmidingizmi-ki... Xurshidning unga xiyonat yo'lini taklif qilishi hikoyadagi tugun desak Hilola qay yo'lni tanlashi kitobxon un muhim . Hilola Xurshidni tanlaydi chunki unga befarq emas deya o'ylashimiz mumkin . Ammo Hilolaga berilgan taklif uni o'zligini, ayollik iffatini uyg'otib yubordi . Hilolaning rad javobi esa Xurshid kabi, kitobxonni ham shoshirib qo'yadi. Manashu yerda tugunning yechimi ham beriladi. Xurshid Hilola bilan bo'lgan suhbatda esa uning ruhiy holati va asl maqsadi oydinlashadi. Xurshid hamma erkaklar kabi Hilolaga nafsoniy his tufayligina yaqinlashganini dialogdagi ohangi orqali anglashimiz mumkin. Qahramonlar o'rtasidagi dialoglar orqali ularning hissiyotlari va ruhiy holatlari ochiladi. so'zlarning intonatsiyasi , emotsanal yuksalmasi va munosabatlari ularning ruhiyatini aks ettiradi. Xurshid bu safar uning yo'lini to'smadi. Hilola mashinadan o'qdek uchib chiqib , yo'lak bo'ylab yugurib ketdi. Atrofga nomoshom qorong'usi yoyilgan, ko'zini yuvayotgan ko'z yoshlarini hech kim ko'rmasdi. Garchi Hilolaga endi baribir , ayni damda Xurshiddan ko'ra o'zidan qochar edi.... Bilamizki tasavvufda yo'l insonni ozligini topishidagi bir vosita. Hilolaning oxiri yo'q yo'ldan qaytib , o'zligini toppish yolidagi kichik safari ham uning hayotidagi tub burilish edi. Xurshid ortiq uning yo'lini to'smasligi ham, Hilola u uchun faqat ko'ngilxushlik , unga hech qanday samiyimiy munosabatda emas. Hilolaning ko'z yoshlarining hech kim ko'rmasligi uning nafaqat ko'zlari balki, vijdonining ham yeg'layotganiga ishoradir. Hilola baxtni ko'chadan emas uni oiladan izlash kerak ekanligini anglab yetdi. Bu hikoyada ayol psixalogiyasi uning jamiyat va oiladagi o'rni , turli vositalar orqali ochib berilgan. Xulosa o'rnida aytish mumkinki ayol doimo atrofidagilardan e'tibor





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

kutib yashaydi va u hamisha oilasidan madad oladi. Hikoyaning yutug'i jamiyatimizdagi ayollar nuqsoni va o'sha nuqsonlarning sabablari keltirilishida. Hikoyada Hilolani avval yomon ko'ramiz lekin uning ichki dunyosiga kirib borganimiz sari va to'g'iri yo'lga qaytganidan so'ng unga qalban yaqin bo'lib boramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Гинзбург, Л. Я. О психологической прозе. О литературном герое. СПб.: Азбука, 2016.
2. Литературная энциклопедия терминов и понятий ; под ред. А. Н. Николюкина. М.: 2001 (<https://www.academia.edu/37372082/>). 3. Gulchehra Asronova „Ouyim oqshomlari, hikoyalarto'plami. 2012.

